

**Bolalarga davlat va nodavlat maktabgacha tashkilotlarida ta’lim-  
tarbiya berish.**

**Обеспечение образования детей в государственных и  
негосударственных дошкольных организациях.**

**Providing education to children in state and non-state preschool  
organizations.**

**JDPU maktabgacha va boshlang‘ich  
yo‘nalishlarda masofaviy ta’lim kafedrası  
stajyor o‘qituvchisi  
Xamzayeva Nafisa Sherbek qizi**

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada davlat va nodavlat maktabgacha ta’lim tashkilotlarining tashkil etilish tartibi hamda, ta’lim tarbiya ishlarini rejali olib borish haqida yozilgan.

**Аннотация:** В статье описывается порядок организации государственных и негосударственных дошкольных образовательных организаций и плановое осуществление воспитательной работы.

**Abstract:** This article describes the procedure for organizing state and non-state preschool educational organizations and the planned implementation of educational work.

**Kalit so‘zlar:** nodavlat, tadbirkor, xususiy-sherikchilik, bitim, nizom, kelishuv, attestatsiya, oilaviy MTT, tarbiyachi, tarbiyalanuvchilar, qonun.

**Keywords:** non-governmental, entrepreneur, private partnership, agreement, charter, agreement, certification, family MTT, educator, educators, law.

**Ключевые слова:** негосударственный, предприниматель, частное партнерство, договор, устав, соглашение, сертификация, семейный МТТ, педагог, педагоги, закон.

**Kirish** O‘zbekistonning milliy mustaqillikka erishishi va hozirgi kunda ma’naviy o‘zgarishlar jamiyatimiz ijtimoiy hayotida tub burilishlarni boshlab berdi va ular o‘zbek xalqining bundan keyingi taqdirini belgilab berishda muhim rol o‘ynaydi. Mustaqillikning dastlabki kunlaridan boshlab barkamol avlod tarbiyasiga alohida e’tibor berib kelinmoqda. Mamlakatimizda ta’lim sohasini isloh qilishga



yo'naltirilgan bir qator chora-tadbirlar amalga oshirilgan. Jumladan, O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni qabul qilindi. Shuningdek, Prezidentimizning "Yoshlarimizning mustaqil fikrlaydigan, yuksak intellektual va ma'naviy salohiyatga ega bo'lib, dunyo miqyosida o'z tengdoshlariga hech qaysi sohada bo'sh kelmaydigan insonlar bo'lib kamol topishi, baxtli bo'lishi uchun davlatimiz va jamiyatimizning bor kuch va imkoniyatlarini safarbar etamiz" mazmundagi fikrlaridan yoshlarga oid davlat siyosatining naqadar ustuvor ekanligini ko'rishimiz mumkin. O'zbekiston Respublikasining Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning "Ma'lumki, yosh avlod tarbiyasi hamma zamonlarda ham muhim va dolzarb ahamiyatga ega bo'lib kelgan. Ammo biz yashayotgan XXI asrda bu masala haqiqatan ham hayot-mamot masalasiga aylanib bormoqda. "Tarbiya qancha mukammal bo'lsa, xalq shuncha baxtli yashaydi", deydi donishmandlar. Tarbiya mukammal bo'lishi uchun esa bumasalada bo'shliq paydo bo'lishiga mutlaqo yo'l qo'yib bo'lmaydi." degan fikrlari tadqiqot ishimizning dolzarbligini o'zida ifodalaydi. Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan ta'lim siyosatining muhim maqsadlaridan biri yosh avlodni har tomonlama barkamol insonlar qilib tarbiyalashdir. Bolani maktabda muvaffaqiyatli ta'lim olishga tayyorlash uchun unga ona tilining barcha boyliklarini egallab olish uchun tegishli shart-sharoitlarni yaratish zarur. Bola nutqining rivoji ko'p jihatdan uning ruhiyatiga, sog'lom, tetik o'sishiga. Ahloqiy sifatlariga o'quv dasturini o'zlatirishda me'yorli bajarilishini ta'minlashshiga, qo'llanmalarining monandligiga bog'likdir. Bu masalalar maktabgacha ta'limda o'z echimi ifodasini topishi va o'z ona tilida ravon gapira oladigan qilib tarbiyalashga qaratilishi zarur. Bolalarning aqliy jarayonini rivojlantirish uchun ularning nutqini o'stirish zarur: Bola har bir so'z manosini tushuna olishi uni o'z nutqida erkin ifodalashga muvofiq bo'lishi kerak. Tushunchalar tizimiga moslashgan bola o'z fikrini jamlab gapirishga va ifodalab berishga o'rganadi. Og'zaki nutqini o'stirish bo'yicha o'tkaziladigan mashg'ulotlarda asosan, bolalarning og'zaki nutqini o'stirishga, nutqni grammatik tomondan to'g'ri shakllantirishga: nutqning morfologik va sintaksis tomonlarini shakllantirishni davom ettirish: sodda va qo'shma gaplar tuzish, bunda barcha so'z turkumlaridan foydalanishga o'rgatish, bolalarni gapirganda sonni otga, sifatni otga, sifatni fe'lga to'g'ri ishlatish malakalarini takomillashtirish, tovush va so'zlarni to'g'ri talaffuz etishga, ravon gapirishga, mustaqil hikoya qilishga e'tibor beriladi. Og'zaki nutqini o'stirishda mustaqil hikoya qilishga o'rgatish katta o'rin egallaydi:



bolalarni o‘z hayotlarida uchragan voqealar, suratlarga qarab, tarbiyachining taklif qilgan mavzusi asosida hikoyalar tuzishga o‘rgatiladi. Tayyorlov guruh bolalarining hikoyalari mazmunan bog‘langan, ma‘lum izchillikda, grammatik tomondan to‘g‘ri tuzilgan bo‘lishi kerak. Bunda bolalarni sam olishini tshkil etish ham muhim hisoblanadi. Ularning ta‘limda zo‘riqishini, darslardan bezishini va hali maktab ta‘limiga psixologik-pedagogik hamda jismoniy to‘liq tayyor emasligini unutmagan holda boshlang‘ich sinflarni savodga o‘rgatish darslarida bolalarni dam olish daqiqalarini tashkil etish tadqiqotimizning dolzarbligini ko‘rsatib beradi.

### **Tadqiqot ob‘ekti va qo‘llanilgan metodlar**

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Maktabgacha ta‘lim tizimini yanada rag‘batlantirish va rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2018-yil 5-aprelda PQ-3651-son qarori qabul qilindi bu qarorning ijrosini ta‘minlash maqsadida Vazirlar Mahkamasining Nizomi ishlab chiqildi. Mazkur Nizom 8 bobdan iborat bo‘lib 3-bobi Oilaviy nodavlat maktabgacha ta‘lim tashkilotlari faoliyatini tashkil etish deb nomlanadi. Bu bobning mazmunida quydagilar belgilab qo‘yilgan. - Oilaviy nodavlat maktabgacha ta‘lim tashkilotlari ta‘lim faoliyatini o‘ziga tegishli uyda (turar joy), bitim muddati davomida amal qilish sharti bilan notarial tasdiqlangan ishonchnoma yoki davlat organlaridan ro‘yxatdan o‘tgan ijara shartnomasi asosida yoxud qonunchilikda belgilangan boshqa asoslarga ko‘ra foydalanish mumkin bo‘lgan turar va noturar joylarda amalga oshirish huquqiga ega. Oilaviy nodavlat maktabgacha ta‘lim tashkilotlari faoliyatini amalga oshirish uchun litsenziya talab etilmaydi. Bu masala joylarda faoliyat yuritayotgan va faoliyatini boshlamoqchi bo‘lgan tadbirkorlar uchun ayni muddao bo‘ldi va bu faoliyat uchun hech qanday cheklovlar mavjud emas. - Oilaviy nodavlat maktabgacha ta‘lim tashkilotining muassislari yakka tartibdagi tadbirkor bo‘ladi. Belgilangan bu tartibdan foydalangan holda tadbirkorlik faoliyati bilan shug‘ulanayotganlar soni kundan-kunga ortib bormoqda. Bu esa maktabgacha yoshdagi bolalarning muassasaga qamrab olish darajasini sezilarli oshishiga ta‘sir qilmoqda. - Oilaviy nodavlat maktabgacha ta‘lim tashkilotlariga kirish joyida fuqarolarni oilaviy nodavlat maktabgacha ta‘lim tashkiloti haqida ma‘lumotlardan xabardor qilish maqsadida axborot peshlavhasi o‘rnatiladi. Bu masala ham barcha muassasalarda ta‘minlagan va ularning kundan-kunga mazmundorligi oshib bormoqda. Ularning nomlanishida bolalar dunyosiga xos bo‘lgan ajoyib nomlardan foydalanilmoqda. Unda tuman (shahar) maktabgacha ta‘lim bo‘limlariga Yagona interaktiv davlat xizmatlari portalidan foydalangan



holda berilgan xabarnoma va uning qabul qilinganligi to‘g‘risida tasdiqnoma nusxalari davlat-xususiy sheriklik to‘g‘risidagi bitim nusxasi, pedagog va tibbiyot xodimlarining diplomlari nusxalari, Oilaviy nodavlat maktabgacha ta‘lim tashkilotlarining ish tartibi va boshqa hujjatlarning nusxalari joylashtirilganligini ko‘rish mumkin. - Oilaviy nodavlat maktabgacha ta‘lim tashkilotida 3 yoshdan 7 yoshgacha bo‘lgan 7 – 50 nafar bolalarga tarbiya berilishiga yo‘l qo‘yiladi. Bu masalaning belgilangan tartib bo‘yicha amalga oshirilishi bu tashkilotdan faoliyatning samarali va natejador bo‘lishi xizmat qiladi. Ammo belgilangan tartib o‘zgartirganda ya‘ni bolalar soni ortib ketganda ish samarasi buziladi. - Oilaviy nodavlat maktabgacha ta‘lim tashkiloti tashkil etilishi rejalashtirilayotgan uyda bolalarning sog‘lom o‘sishi va tarbiya olishlari uchun zarur shart-sharoitlar bo‘lishi, bino va inshootlar yong‘in xavfsizligi hamda sanitariya-epidemiologiya xizmatining sanitariya qoidalari, normalari va gigiyena normativlariga mos bo‘lishi lozim. Bu masala ko‘plab faoliyat yuritayotgan muassasalarda yetarlicha ta‘minlangan bu esa bu tashkilotgan nisbatan aholining ko‘ngliga taskin bersa ba‘zi bir muassasalarda esa yo‘q ular bolalardan va muassasadan boshqa maqsadda foydalanayotgandek nazarimizda. - Oilaviy nodavlat maktabgacha ta‘lim tashkiloti shaklidagi davlat-xususiy sheriklik loyihasini amalga oshirish uchun xususiy sherik (yakka tartibdagi tadbirkor shaklida) davlat sherigiga ariza bilan murojaat qiladi. Xususiy sherikning loyihani amalga oshirish to‘g‘risidagi arizasi davlat sherigi tomonidan ariza tushgan kundan boshlab 15 kun ichida ko‘rib chiqiladi. Loyihani amalga oshirish maqsadga muvofiqligi to‘g‘risida qaror qabul qilingan taqdirda, davlat sherigi va xususiy sherik o‘rtasida yetti kun ichida bitim tuziladi. Davlat-xususiy sheriklik to‘g‘risida tuzilgan bitimlarning yagona reyestri Maktabgacha ta‘lim vazirligi tomonidan yuritiladi. Oilaviy nodavlat maktabgacha ta‘lim tashkiloti tuman (shahar) maktabgacha ta‘lim bo‘limlariga Yagona interaktiv davlat xizmatlari portalidan foydalangan holda berilgan xabarnomani qabul qilinganligi haqida tasdiqnomani olgan kundan boshlab ta‘lim faoliyatini amalga oshirish huquqiga ega bo‘ladi. Bunda, oilaviy nodavlat maktabgacha ta‘lim tashkiloti xabarnomaga quyidagi hujjatlar nusxasini ilova qiladi: oilaviy nodavlat maktabgacha ta‘lim tashkilotida tarbiyaviy-ta‘lim faoliyatini olib borayotgan pedagogika xodimi oliy yoki o‘rta maxsus pedagogik ma‘lumotiga ega ekanligini tasdiqlovchi hujjat. Yuqorida keltirilgan tartib aniq va to‘g‘ri belgilab qo‘yilgan agar massasa shu belgalangan bosqichlardan birma-bir o‘tib tashkil etilgan bo‘lsa uning faoliyati samarali bo‘ladi.



Ammo bu tartibni sohtalashtirish va osonlashtirish evaziga tashkil etilayotgan massasalar ham topiladi. - Oilaviy nodavlat maktabgacha ta'lim tashkilotida ta'lim mazmuni maktabgacha ta'limga qo'yiladigan davlat talablariga asosan ishlab chiqilib, O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta'lim vazirligi tomonidan tasdiqlangan yoki tavsiya qilingan dasturlar bilan belgilanadi. Oilaviy nodavlat maktabgacha ta'lim tashkiloti o'z (mualliflik) dasturlaridan foydalanishga haqlidir. Ushbu dasturlarni tasdiqlash tartibi O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta'limi vazirligi tomonidan belgilanadi. Oilaviy nodavlat maktabgacha ta'lim tashkilotlarining o'z (mualliflik) dasturlarida milliy, etnik va diniy adovatni targ'ib etishga qaratilgan buzg'unchilik g'oyalarini aks ettirilishiga yo'l qo'yilmaydi. - Oilaviy nodavlat maktabgacha ta'lim tashkilotining ish tartibi va bolalarning tashkilotda bo'lish vaqti ota-onalarning istak va talablaridan kelib chiqib muassis tomonidan belgilanadi. 9 soatli; 4 soatli. Oilaviy nodavlat maktabgacha ta'lim tashkiloti joylashgan hududda yashaydigan aholi talablaridan kelib chiqib, nodavlat maktabgacha ta'lim tashkilotida 6 kunlik ish haftasi ham joriy etilishi mumkin. - Oilaviy nodavlat maktabgacha ta'lim tashkilotida bolalarning ovqatlanishi O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligi tomonidan tasdiqlangan sanitariya qoidalari, normalari va gigiyena normativlari asosida amalga oshiriladi. - Oilaviy nodavlat maktabgacha ta'lim tashkiloti tarbiyalanuvchilariga tibbiy yordam ko'rsatish sog'liqni saqlash organlarining shartnoma asosida maxsus birlashtirilgan tibbiyot xodimlari tomonidan amalga oshiriladi. Tibbiyot xodimlari oilaviy nodavlat maktabgacha ta'lim tashkiloti xodimlari bilan birgalikda bolalarning hayoti, sog'lig'i va jismoniy rivojlanishi, davolash-profilaktika tadbirlari o'tkazilishi, sanitariya qoidalari, normalari va gigiyena normativlariga, ovqatlanish rejimi va sifatiga rioya qilinishi uchun javob beradilar. Oilaviy nodavlat maktabgacha ta'lim tashkiloti xodimlarini tibbiy ko'rikdan o'tkazish shartnoma asosida amalga oshiriladi. Yuqorida belgailan talablar mazmunidan kelib chiqib xulosa qilish mumkin oilaviy nodavlat maktabgacha ta'lim tashkilotlarining to'g'ri va samarali faoliyat yuritishi boshqaruvchi ya'ni tashkilot rahbariga bo'g'liq. Maktabgacha ta'lim agentligining 2023-yil 9-oktabrdagi 124- sonli buyrug'iga ILOVA sifatida maktabgacha ta'lim xodimlari asosiy lavozimlarining malaka tavsiflari ishlab chiqilgan unga ko'ra har qaysi turdagi MTT ga rahbar belgilangan talablarga amal qilishi shart.



### **Olingan natijalar va ularning tahlili**

Maktabgacha ta'lim va tarbiyaning davlat standarti barcha maktabgacha ta'lim tashkilotlari uchun majburiydir. Maktabgacha ta'lim va tarbiyaning davlat standarti kamida besh yilda bir marta qayta ko'rib chiqiladi. Maktabgacha ta'lim va tarbiyaning davlat standarti maktabgacha ta'lim va tarbiyaning davlat ta'lim dasturini, maktabgacha yoshdagi bolalarga maktabgacha ta'lim va tarbiya berish sohasidagi o'quv-uslubiy qo'llanmalarni, uslubiy tavsiyalarni ishlab chiqishda, shuningdek maktabgacha ta'lim tashkilotlarini loyihalashtirishda, qurishda, jihozlashda va ularning faoliyatini tashkil etishda hisobga olinishi shart. Davlat maktabgacha ta'lim tashkiloti yuridik shaxs shaklida tashkil etiladi va o'z faoliyatini ustav asosida amalga oshiradi. Quyidagilar davlat maktabgacha ta'lim tashkilotining muassislaridir: davlat va xo'jalik boshqaruvi organlari; mahalliy davlat hokimiyati organlari. Oldingi tahrirga qarang. Boshqa davlat organlari va tashkilotlar ham qonunchilikka muvofiq davlat maktabgacha ta'lim tashkilotining muassislari bo'lishi mumkin.

### **Xulosa**

Maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarga ta'lim-tarbiya berish ishini muvaffaqiyatli amalga oshirish uchun dasturni yaxshi bilishning o'zi etarli emas, shu bilan birga, har bir bolaning shaxsini rivojlantirish yo'llarini yaxshi bilish, bolaning bilim, malaka va ko'nikmalarni egallab olish qobiliyati har xilligini ham e'tiborga olish kerak. Shunday qilib maktabgacha ta'lim tashkilotlarida ta'limiy va tarbiyaviy jarayonlarni rejalashtirishga innovatsion yondoshuv negizlarini tadbirlarning dolzarbligi, ularni amalga oshirishning texnologik imkoniyatlari mavjudligi va samaradorlikka erishishnong mexanizmlari belgilanishi tashkil etadi. Bu masalalar keng ko'lamda taqiq etilishi maqsadga muvofiq bo'ladi.

### **Adabiyotlar ro'yxati.**

1. O'zbekiston Respublikasi maktabgacha ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi.//www.ziyonet.uz.
2. Qodirova F. va boshq. Maktabgacha pedagogika. –Toshkent,2019
3. www.ziyonet.uz
4. www.arxiv.uz
5. WWW.kitob.uz

